

Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich,
Samarqand davlat universiteti dotsenti



Fozilov Xamidulla Xikmatovich,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti



HUDUDLARDA ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLAR

Annotatsiya. Maqolada ishchi kuchi migratsiyasining rasmiy va norasmiy ko'rinishlari, uning mavsumiy, vaqtinchalik va takrorlanuvchan xususiyatlari, shuningdek, migratsiyaga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik omillar ta'siri respublikaning ayrim viloyatlari misolida tahlil qilingan.

Аннотация. В статье анализируются формальные и неформальные формы трудовой миграции, ее сезонные, временные и периодические характеристики. А также на примере некоторых регионов республики исследованы влияния социально-экономических и демографических факторов на миграцию.

Annotation. The article analyzes formal and informal forms of labor migration, its seasonal, temporal and periodic characteristics. Using the example of some regions of the republic, the influence of socio-economic and demographic factors on migration is studied.

Tayanch soʻzlar: mehnat bozori, ishchi kuchi migratsiyasi, donor va retsepiyent mamlakatlar, tashqi mehnat migrantlari, yuqori ish haqi.

Ключевые слова: рынок труда, трудовая миграция, страны-доноры и страны-реципиенты, иностранные трудовые мигранты, высокая заработная плата.

Keywords: labor market, labor migration, donor countries and recipient countries, foreign labor migrants, high wages.

Kirish. Ishchi kuchi migratsiyasi – mehnat bozorida migrantlarning bilim, koʻnikma va qobiliyatlarini sotish maqsadida aholining turli muddat davomida mamlakat chegarasi ichida va ortida hududiy koʻchishini anglatadi. Jahon amaliyotida ishchi kuchi migratsiyasining kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab boʻladi: boy va qashshoq mamlakatlar oʻrtasidagi iqtisodiy notenglik; aholining demografik nomutanosibligi; iqtisodiy rivojlanish natijasida ijtimoiy aloqalarga putur yetishi; donor va retsepiyent mamlakatlar oʻrtasidagi aloqalar; migrantlar mehnatining arzonligi va boshqalar. Oʻzbekiston Respublikasida, ayniqsa, respublikaning janubi-gʻarbiy hududlarida ishchi kuchi migratsiyasining kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat: ish oʻrinlarining yetarli emasligi; ishchi kuchi bahosining arzonligi; yaxshi maosh toʻlanadigan doimiy ishning yoʻqligi; yashash sharoitining nisbatan pastligi; oʻqish uchun pul ishlab topish; mutaxassislik boʻyicha ishning yetarli emasligi; hech qanday kasb yoki hunarga ega boʻlmashlik va h.k.

Asosiy qism. Rivojlangan davlatlar uchun migrantlar arzon ishchi kuchi bilan taʼminlashga, yuqori malakali mutaxassislar yetishmayotgan sohalarni bilimli mutaxassislar bilan toʻldirishga yordam beradi¹. Mehnat bozorida aholini ish bilan taʼminlashda yuqoridagi muammolarning mavjudligi ishchi kuchi migratsiyasini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Hozirgi davrda tashqi ishchi kuchi migratsiyasining oʻzgarishiga iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va tashkiliy-huquqiy tavsifga ega asosiy omillar bevosita taʼsir koʻrsatadi. Tashqi ishchi kuchi migratsiyasining asosiy iqtisodiy omillari tarkibiga ishlash va yuqori daromad topish imkoniyatlarining yuqoriligi, fuqarolarni kasbga tayyorlash va ularni chet elda migratsiyasi davrida qoʻllab-quvvatlash boʻyicha maxsus jamgʻarmani tashkil etish, bandlik sohasida xizmatlar koʻrsatuvchi agentliklarga soliq imtiyozlarini berish lozimdir.

Migrantlarga toʻlanadigan ishhaqi miqdori minimal isteʼmol savatchasidan kam boʻlmashligi, biznes yuritishning qulayligi, sanoat innovatsiyasi yoki yangi sanoat uchun texnik imkoniyatlarning mavjudligi, ishchi kuchi migrantlarining transport va boshqa xarajatlari uchun tijorat

¹ Tojiyeva Z.N., Doʻsmonov F.A., Ibragimov L. Mehnat migratsiyasi: omillar, sabablar, muammolar // OʻzMU xabarleri. – Toshkent, 2012. – B.14-15.

banklaridan kredit olishlariga ruxsat berish hamda kreditlarni xalqaro to'lov tizimlari orqali olish va to'lashning qulay mexanizmlarini joriy etish salmoqli ta'sirga ega.

Statistik ma'lumotlar va ularning tahlili. Ijtimoiy-demografik omil sifatida ishchi kuchining malakasini oshirish, ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat xorijlik ish beruvchilardan bo'sh ish o'rinlari, ish xarakteri, maosh, ishchilardan talab etiladigan malaka (ko'nikma) lar haqida ma'lumotlarni to'plab borish, zarur tibbiy yordam va yaxshi gigiyenik shart-sharoit bilan ta'minlab berish ko'zda tutiladi². Shuningdek, ish beruvchi ishga taklif qilayotgan migrantlar uchun tibbiy sug'urtani o'z zimmasiga olishi, ularni yotoqjoy bilan ta'minlash va hamda sanitariya-gigiyena normalariga muvofiq bo'lishini ta'minlash yetakchi o'rin egallaydi.

1-jadval

Janubi-g'arbiy O'zbekiston bo'yicha tashqi mehnat migrantlari sonining o'zgarishi (ming kishi)

Hududlar	2010-yil	2015- yil	2017- yil	2018-yil	2020-yil	2020-yilda 2015-yilga nisbatan (%)
Buxoro	37,5	66,4	108,2	133,2	116,9	311,7
Qashqadaryo	21,2	100,1	96,5	177,9	162,1	764,6
Navoiy	3,7	14,4	17,2	37,7	28,1	759,5
Samarqand	36,2	143,3	186,5	341,2	242,0	668,5
Surxondaryo	19,4	74,1	72,5	163,4	146,0	752,6
Jami	118,0	398,3	480,9	853,4	695,1	589,1

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, janubi-g'arbiy O'zbekistonda tashqi mehnat migrantlari ulushi 37,8 foizni tashkil etib, 2010–2020-yillarda ularning soni 5,89 martaga ortgan (1-jadval). 2020-yilda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan 673 nafar janubi-g'arbiy O'zbekiston fuqarolari tashkiliy ravishda ishlash uchun xorijga jo'natilgan. Jumladan, ikki tomonlama imzolangan kelishuvga muvofiq, 614 nafar O'zbekiston fuqarosi Koreya Respublikasiga, 50 nafari Rossiyaga, 9 nafari Bolgariyaga ishlashga

² Khamid ABDURAMANOV, Lutfullo IBRAGIMOV, 2015. "[Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan](#)", [SEA - Practical Application of Science](#), Romanian Foundation for Business Intelligence, Editorial Department, issue 7, pp. 363-368.

jo'natilgan³. Jadvaldan ko'rinib turganidek, tahlil qilinayotgan davrda, Qashqadaryo (7,64 marta) va Surxondaryo (7,52 marta) viloyatlarida tashqi mehnat migrantlari soni boshqa hududlarga qaraganda, yuqori sur'atda o'sgan. Bunday holat tashqi mehnat migratsiyasi masalalariga davlat darajasida yanada jiddiyroq e'tibor qaratish, uni tartibga solish bo'yicha mavjud mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi. Xorijda ishlayotgan fuqarolarning (2020-yil) 80,7 foizini erkaklar, qolgan 19,3 foizini ayollar tashkil qiladi. Tashqi mehnat migrantlarining yarmidan ko'pi (56,8 foizi) yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatlar kesimida tahlil qilinganida, 61,5 foiz tashqi mehnat migranti Rossiya Federatsiyasida, 12,1 foizi – Qozog'iston Respublikasida, 9,5 foizi – Turkiyada, 5,3 foizi – Koreya Respublikasida, 1,2 foizi – Birlashgan Arab Amirliklarida, qolgan 10,3 foizi boshqa mamlakatlarda mehnat qilmoqda (2-jadval). Janubi-g'arbiy O'zbekistonning viloyatlari bo'yicha olib borilgan tahlillar Buxoro viloyatidan Rossiya Federatsiyasiga, Navoiy viloyatidan Qozog'iston va Koreya Respublikalariga, Samarqand viloyatidan Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklariga borib ishlayotganlar ulushi mintaqaning boshqa hududlariga qaraganda ko'pchilikni tashkil qiladi.

2-jadval

Janubi-g'arbiy O'zbekiston viloyatlari aholisidan tashqi mehnat migratsiyasi agentligi orqali chet elga ishga joylashtirilganlar sonining o'zgarishi (kishi)

№	Hududlar nomi	2010-yil			2016-yil			2018-yil				2019-yil						2020-yil			
		Jami	shundan:		Jami	shundan		Jami	shundan			Jami	shundan:					Jami	shundan:		
			Koreya	Rossiya		Koreya	Rossiya		Koreya	Rossiya	Yaponiya		Koreya	Rossiya	Turkiya	Polsha	Bolgariya		Koreya	Rossiya	Bolgariya
1	Buxoro	317	52	265	95	92	3	115	44	71	-	198	56	112	30	-	-	191	170	21	-
2	Qashqadaryo	723	199	524	392	387	5	433	373	59	1	397	349	41	7	-	-	277	243	25	9
3	Navoiy	210	210	-	72	72	-	89	57	32	-	133	70	56	7	-	-	50	49	1	-
4	Samarqand	749	749	-	172	172	-	376	331	43	2	315	220	83	12	-	-	40	40	-	-
5	Surxondaryo	86	86	-	67	67	-	139	63	72	4	98	56	34	8	-	-	115	112	3	-
	Jami	2085	1296	789	798	790	8	1152	868	277	7	1141	751	326	64	-	-	673	614	50	9

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

³ Ibragimov, L. Z., Musaev, B. M., & Usmanxonova, D. F. q. (2021). O'zbekistonning bandlik va mehnat bozoriga demografiya omilining ta'sirini baholashning ba'zi jihatlar. Science and Education, 2(7), 367–376.

Ishchi kuchi mehnat migratsiyasi rasmiy va norasmiy ko'rinishga ega bo'ladi. O'zbekistonda Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, BAA, Bolgariya, Polsha, Yaponiya mamlakatlari bilan rasmiy ko'rinishdagi mehnat migratsiyasi yo'lga qo'yilgan. Tadqiq qilinayotgan davrda (2010–2020-yillar) mintaq bo'yicha ishga joylashtirilganlar soni 2085 nafardan 673 nafarga, ya'ni 67,8 foizga kamaygan. Bunday kamayish tendentsiyasi mintaqaning Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ham kuzatilgan. Jumladan, 2020-yilda rasmiy tashqi migrantlar soni 2010-yilga nisbatan Samarqand viloyatida – 94,7 foizga, Navoiy viloyatida – 76,2 foizga, Qashqadaryo viloyatida – 61,7 foizga, Buxoro viloyatida esa 39,8 foizga qisqargan.

Tadqiqot davrida agentlik orqali chet elda ishga joylashtirilganlar soni mintaqaning faqat Surxondaryo viloyatida ortgan (mos ravishda 86 nafardan 115 nafarga). Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2010–2017-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari faqat 2 ta mamlakat – Koreya va Rossiyaga ishlashga jo'natilgan bo'lsa, 2018-yildan boshlab rasmiy mehnat migratsiyasining geografiyasi kengaygan va ular qatoriga Yaponiya, Turkiya, Polsha va Bolgariya mamlakatlari ham qo'shilgan. 2019-yilda janubi-g'arbiy O'zbekiston bo'yicha xususiy bandlik agentliklari tomonidan 1227 nafar fuqaro chet elda ishga joylashtirilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xususiy bandlik agentliklari orqali 22 ta mamlakatga ishga joylashtirilgan. Tashqi mehnat migrantlarining aksariyati Rossiya, Turkiya, Litva, Latviya, Polsha va Bolgariya mamlakatlariga jo'natilgan. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p tashqi mehnat migrantlari Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan jo'natilgan.

Respublikada ishchi kuchi migratsiyasi ko'proq norasmiy ko'rinishga egaligi bilan farq qiladi. Ushbu vaziyat mazkur turdagi mehnat migratsiyasining mavsumiy, vaqtinchalik va takrorlanuvchan xususiyatida namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyati uchun viza masalasi, ruxsatnoma, mehnat shartnomasi, migrantlar uchun maxsus karta, bojxona deklaratsiyasi va shu kabi rasmiy hujjatlarsiz ham amalga oshirilgan harakat norasmiy maqomni oladi. Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida aholi turli shaharlar bo'ylab turfa soha va tarmoqlarda ish bilan ta'minlangan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida respublika hududlarini mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi bo'yicha 3 ta guruhga ajratish mumkin⁴:

O'zbekistonda Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, BAA, Bolgariya, Polsha, Yaponiya mamlakatlari bilan rasmiy ko'rinishdagi mehnat migratsiyasi yo'lga qo'yilgan. Tadqiq qilinayotgan davrda (2010–2020-yillar) mintaq bo'yicha ishga joylashtirilganlar soni 2085 nafardan 673 nafarga, ya'ni 67,8 foizga kamaygan. Bunday kamayish tendentsiyasi mintaqaning Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ham kuzatilgan.

⁴ Ibragimov L.Z. (2021). *Janubi-g'arbiy O'zbekistonning mehnat bozoridagi vaziyat*. O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 60-jild. – Toshkent. – B. 56-63.

***Ko‘rinib turibdiki,
janubi-g‘arbiy
O‘zbekistonning
Samarqand,
Qashqadaryo
va Surxondaryo
viloyatlari mehnat
resurslari bilan
ko‘p ta‘minlangan,
Buxoro viloyati –
o‘rtacha, Navoiy
viloyati esa kam
ta‘minlangan
hududlar qatoriga
kiradi.***

1. Mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan hududlar – Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari.

2. Mehnat resurslari bilan o‘rtacha ta‘minlangan hududlar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlari.

3. Mehnat resurslari bilan kam ta‘minlangan hududlar – Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari.

Ko‘rinib turibdiki, janubi-g‘arbiy O‘zbekistonning Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan, Buxoro viloyati – o‘rtacha, Navoiy viloyati esa kam ta‘minlangan hududlar qatoriga kiradi. Mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan hududlardagi aholini kam ta‘minlangan mintaqalarga ichki migratsiyasini tashkillashtirilgan tarzda samarali tashkil etish respublikaning mehnat resurslari bilan teng taqsimlanishini ta‘minlaydi. Bu Respublika ichidagi mehnat migrantlarining qishloqlardan shaharlarga, tuman markazlaridan boshqa yirik shaharlarga yoki bir viloyatdan boshqa bir viloyatga ko‘chishi kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston bo‘yicha ichki mehnat migratsiyasi 8,9 foizga teng bo‘lib, ichki mehnat migratsiyasida yirik shaharlar vazifasini o‘tamoqdalar. Xususan, respublika ichki migratsiyaning 70,0–80,0 foizi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Qishloq-shahar migratsiyasi respublikada ijobiy ahamiyatga ega. Zero, mamlakatda aholining ko‘pchiligi qishloq joylarida yashaydi va bu yerlarda aholi sonining yuqori sur‘atlarda o‘sishi saqlanib qolmoqda. Bu aholi zich yashaydigan hududlarda ishchi kuchi ehtiyojdan ortiqcha, mamlakatda qishloq joylarida yangi ish o‘rinlari yaratishga birinchi darajali ahamiyat berilayotganiga qaramasdan, mehnat resurslarini ish bilan ta‘minlash muammosi o‘tkirlikicha qolmoqda.

Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston mintaqasida mehnat migratsiyasiga asosan mavsumiylik va takroriylik xususiyatlari xos bo‘lib, mazkur turdagi ishchi kuchi harakatining asosiy qismi qishloq aholisi (80,5%) hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Buning o‘ziga xos asosiy sabablaridan biri sifatida ishchi kuchi taklifining ortib borishi hamda qishloq joylarida ish bilan ta‘minlanish imkoniyatining nisbatan kamligini keltirish mumkin.

3-jadval

**Janubi-gʻarbiy Oʻzbekiston boʻyicha ichki mehnat migrantlari
sonining oʻzgarishi (ming kishi)**

Hududlar	2010- yil	2015- yil	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2020- yilda 2010-yilga nisbatan (%)
Buxoro	4,6	4,9	5,2	5,4	4,9	5,4	5,8	126,1
Qashqadaryo	7,2	8,1	9,3	8,9	8,8	9,6	10,3	143,1
Navoiy	8,6	9,1	9,4	10,4	10,5	9,1	9,9	115,1
Samarqand	8,3	9,9	8,6	8,3	9,6	9,4	10,6	127,7
Surxondaryo	7,8	9,3	9,4	11,6	9,6	10,3	11,8	151,3
Jami	36,9	41,3	41,9	44,6	43,4	43,8	48,4	131,2

**Jadval Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi
maʼlumotlari asosida tuzilgan*

Ishchi kuchining katta qismi qishloq joylarda, asosan, qishloq xoʻjaligi sohasiga safarbar qilinganligi va ushbu tarmoqdagi ishlar – vaqtincha, yaʼni mavsumiy xarakterga egaligi respublikada mavsumiy mehnat migratsiyani kelib chiqishiga asosiy sabab boʻladi. Vazirlik maʼlumotlariga koʻra, oʻrganilayotgan mintaqada mehnatga layoqatli aholining ichki mehnat migratsiyasi faollashmoqda (2-jadval). Mintaqa viloyatlari orasida ichki migratsiya faol boʻlgan hududlar, asosan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida kuzatiladi. Soʻnggi 2010–2020-yillar davomida ichki migratsiya Surxondaryoda (151,3 foiz), Qashqadaryo (143,1 foiz), Samarqand (127,7 foiz) hamda Buxoro viloyatida (126,1 foiz) oʻsgan. Koʻrinib turibdiki, eng past koʻrsatkich Navoiy viloyatiga (115,1 foiz) tegishli (2-jadval).

Mehnat migrantlarining respublika ichidagi harakatining uchta muhim yoʻnalishini alohida koʻrsatish mumkin:

Birinchi – Toshkent shahri boʻlib, respublikaning barcha viloyatlari uchun eng asosiy yoʻnalish.

Ikkinchi yoʻnalish – viloyatlar ichida boʻlib, bunda viloyat markazlari muhim oʻrin tutadi.

Uchinchi yoʻnalish esa viloyat tumanlarining markazlari hisoblanadi. Yuqorida aytib oʻtilganidek, mazkur turdagi ishchi kuchi harakatining asosiy qismi qishloq aholisi (80,5%) hisobiga toʻgʻri kelmoqda⁵. Ichki ishchi kuchi harakatining asosiy qismi qishloq aholisi hissasiga toʻgʻri kelishining asosiy sabablari quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, mintaqa viloyatlarining qishloq hududlarida ortiqcha mehnat resurslarining mavjudligi.

⁵ Ibragimov L.Z. (2021). Janubi-gʻarbiy Oʻzbekistonning mehnat bozoridagi vaziyat. Oʻzbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 60-jild. – Toshkent. – B. 56-63.

Ikkinchidan, qishloq hududlarida ish o‘rinlarining yetishmasligi va ishlash imkoniyatlarining pastligi.

Uchinchidan, mehnat migrantlarining viloyat markazlari yoki poytaxtga intilishida mavsumiy ish o‘rinlarining ko‘pligi va ishhaqi uchun olinadigan haq miqdorining nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlarga ishchi kuchini eksport qilishi tufayli:

– ishchi kuchi eksporti tufayli, respublika milliy daromadiga xorijdan mablag‘ kelib qo‘shiladi.

– migrantlar o‘zlari bilan birga eng zamonaviy bilimlarni, ishlab chiqarish uchun muhim bo‘lgan xorijiy tajribalarni hamda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni o‘rganib qaytadi;

– xorijiy firma va korxonalardagi mavjud bo‘lgan mehnatni tashkil etish, samarali mehnat qilish, ishlab chiqarish jarayonini to‘g‘ri boshqarish o‘rganilib, eng asosiysi – zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarni egallashga erishiladi.

Ishchi kuchi eksportining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Bizningcha, hududlarda migratsiyani tartibga solish hamda mehnat migrantlaridan to‘g‘ri foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

4-jadval

Ishchi kuchi eksportining ijobiy va salbiy jihatlari⁶

Ijobiy	Salbiy
1. Ishchilar tomonidan yangi malakaviy ko‘nikmalarning egallanishi	1. Malakali ishchi kuchidan foydalana olmaslik
2. To‘lov balansi kamomadining qisqarishi	2. Tovarlar bilan bir qatorda, ishchi kuchi bo‘yicha xalqaro talabga bog‘liqlikning kuchayishi
3. Ichki mehnat bozoridagi talab va taklifning muvozanatga kelishi	3. Iste‘mol uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish resurslarini o‘zlashtirish uchun sarflanayotgan kapitalning boshqa sohalarga yo‘naltirilishi
4. Ishlab chiqarishni tarkiban va texnologik jihatdan qayta qurish	4. Inflyatsiya darajasining oshishi

*Jadval muallif tomonidan tuzilgan

⁶ Ibragimov, L.Z. (2016). Importance of studying natural and geographical potential of regions in economic-geographical research (A case study of Samarkand regions. Science and world. 7 (35), pp.111-115.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, respublikaning barcha tumanlarida ichki mehnat migratsiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim. Ushbu markazlar mehnat resurslarining hududiy, tarmoq, kasb bo'yicha harakatchanlik balansini ishlab chiqish, hududlardagi yashash joyini o'zgartirishga muhtoj shaxslarni aniqlash maqsadida mehnat bozori monitoringini tashkil qilishi talab etiladi.

Ikkinchidan, markazlar respublika shahar va tumanlarining mehnat resurslari bilan qay darajada ta'minlanganligiga ko'ra guruhlarga ajratish orqali hududiy migratsion yo'nalishlarni to'g'ri belgilash.

Uchinchidan, boshqa hududlarga ko'chuvchi fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishini to'liq ta'minlash.

To'rtinchidan, mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun tegishli tashkilot va vazirliklar boshchiligidagi ishchi kuchi import qiluvchi mamlakatlar, yirik ish beruvchi kompaniyalar buyurtmalariga muvofiq yollanma, malakali ishchi hamda mutaxassislarni tayyorlash mexanizmini yaratish. Migrantlarga ishlashi rejalashtirilayotgan mamlakatning tili, tarixi, urf-odatlar hamda an'alarining o'rgatilishi, tanlangan ish va kasb-hunar bo'yicha zaruriy malaka va ko'nikmalar shakllantirilishi lozim.

Janubi-g'arbiy O'zbekistonda tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan birmuncha yuqori ekanligi, respublikada tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 0,4, o'rganilayotgan hududda esa 0,1 yoshga uzayganligi hamda ushbu hududlarda tashqi mehnat migrantlari yuqori sur'atda o'sganligi aniqlandi. Bunday holat tashqi mehnat migratsiyasi masalalariga davlat darajasida jiddiyoq e'tibor qaratish, uni tartibga solish bo'yicha mavjud mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishini talab qiladi.

Hududlarda migratsiyani tartibga solish va mehnat migrantlaridan to'g'ri foydalanish uchun respublikaning barcha tumanlarida ichki va tashqi mehnat migratsiya masalalari bilan shug'ullanuvchi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etiladi. Ushbu markazlar mehnat resurslarining hududiy, tarmoq, kasb bo'yicha harakatchanlik balansini ishlab chiqish, hududlardagi yashash joyini o'zgartirishga muhtoj shaxslarni aniqlash, mehnat bozorini doimiy nazorat qilishni tashkil etish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Hududlarda migratsiyani tartibga solish va mehnat migrantlaridan to'g'ri foydalanish uchun respublikaning barcha tumanlarida ichki va tashqi mehnat migratsiya masalalari bilan shug'ullanuvchi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiyeva Z.N. Do'smonov. F.A., Ibragimov L. *Mehnat migratsiyasi: omillar, sabablar, muammolar* // O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2012. – B.14-15.
2. Khamid Khudaybergenovich ABDURAMANOV & Lutfullo Ziyadullayevich IBRAGIMOV, 2015. "Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan", *SEA - Practical Application of Science*, Romanian Foundation for Business Intelligence, Editorial Department, issue 7, pp. 363-368, April. Available at: https://seaopenresearch.eu/Journals/articles/SPAS_7_51.pdf
3. Ibragimov, L. Z., Musayev, B. M., & Usmanxonova, D. F. q. (2021). O'zbekistonning bandlik va mehnat bozoriga demografiya omilining ta'sirini baholashning ba'zi jihatlari. *Science and Education*, 2(7), pp. 367–376. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1720>
4. Ibragimov L.Z. (2021). Janubi-g'arbiy O'zbekistonning mehnat bozoridagi vaziyat. O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 60-jild. – Toshkent. – B. 56-63. Available at: <https://www.researchgate.net/>
5. Ibragimov, L.Z. (2016). Importance of studying natural and geographical potential of regions in economic-geographical research (A case study of Samarkand regions. *Science and world*. 7 (35), pp.111-115. Available at: <http://scienceph.ru/>